

BERDAQ - QORAQALPOQ XALQINING IFTIXORI

Jamaladinova Aynur Nurkenovna

Toshkent Pediatiriya tibbiyot instituti tibbiy pedagogika va davolash ishi fakulteti 326-guruh talabasi


jamaladinovaaainuur@gmail.com

Annotatsiya : *Qoraqalpoq xalqining noyob farzandi bo'lmish xalqimiz suygan shoir Berdimurot Qarg'aboy o'g'li Berdaq hisoblanadi. Berdaq qoraqalpoq adabiyotining eng katta va qimmatli yutuqlaridan biri hisoblanadi.*

Kalit so'zlar : *adib, baxshi, shoir, qoraqalpoq kuychisi, mutaffakir, haqiqat, ozodlik, xalqparvar, mardlik, do'stlik, milliy qadryatlar, insonparvarlik.*

KIRISH.

Har bir xalqning o'zligini, milliy mavqei va qadr-qimmatini dunyoga tanituvchi ulug' farzandlari bo'ladi. Ularning qoldirgan o'lmas meroslari ayni xalqning nafaqat o'tmishini, balki buguni va kelajagini ham belgilaydi. Biz ulug' Berdaq shoirni nafaqat qoraqalpoq, butun xalqimizning ana shunday ardoqli farzandlaridan biri sifatida doimo qadrlaymiz. Har yili mamlakatimizda 27- noyabr kuni qoraqalpoq elining buyuk shoiri Berdimurot Qarg'aboy o'g'li Berdaqning tavallud ayyomi keng nishonlanadi. Xususan Qoraqalpog'istonning shahar va tumanlarida, ma'naviyat va ma'rifat maskanlarida berdaqxonlik tadbirlari o'tkaziladi. Uning she'r va dostonlaridan namunalar o'qiladi. Berdaq simosi haqiqiy ma'noda qoraqalpoq, balki butun turkiy xalqlarning g'urur va iftixori timsoliga aylangan.



Tarixiy ma’lumotlarga ko’ra Berdaq 1827-yilda Orolbo’ydagi Bo’zatov tumani hududida tavallud topgan. Bolaligidan ma’rifatga, adabiyotga mehr qo’ydi. Qoraqolpoq xalqining maqol va matallari, lapar va dostonlarini qiziqish bilan o’rgandi. Avval ovul maktabida, keyin o’sha darvning yirik ta’lim maskanlaridan hisoblangan Qoraqum eshon madrasasida saboq oldi. Diniy va dunyoviy fanlar bilan birga Alisher Navoiy, Abdurahmon Fuzuliy, Abdulqodr Bedil, Fariduddin Attor, Maxtumquli, So’fi Ollyor singari Sharq mutafakkirlari hayoti va ijodini astoydil o’rgandi. Berdaqning she’rlaridan birida shunday misralar bor:

“Chorkitob”dan tura qochdim,
Navoiydan savod ochdim,
Fuzuliydan durlar sochdim,
Dilyorlarni izlar edim,

Berdag o’z she’rlarida xalqining boshiga tushgan musibatlarni ochiq-oshkora, sidqidildan kuylay olgan. U o’zining “Aqimbet”, “Shajara”, “Oydo’s bobo”, “Amangeldi”, “Ernazar biy”, “Xorazm” singari dostonlarida qoraqolpoq xalqining o’n to’qizinchi asrdagi hayoti, turmush tarzini ko’rsatib bera oldi. Uning asarlari o’sha davrda Orolbo’ydagi mavjud siyosiy vaziyatni, madaniy muhitni o’rganishda ham muhim o’rin tutadi. Uning birga “Musa baxshiga” nomli she’rida yigirmadan ortiq xalq baxshi va oqinlarining nomi tilga olinadi. Mutaxassislarning fikricha, Berdaqning o’zi ham baxshi bo’lgan, dutor chalib, qo’shiq va laparlar, doston ijro etgan. Berdak lirik she’rlarda, dostonlarda qoraqolpoq xalqining ijtimoiy hayoti o’z ifodasini topgan. U o’z davri voqealariga, ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baho beradi. Asarlarida tenglik, insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik g’oyalari ilgari suriladi.

Berdag ijodiy insoniylik, vatanparvarlik, olijanoblik singari fazilatlar alohida o’rin tutadi. U butun umri davomida o’z yurtdoshlarini ilm-ma’rifatga, birdamlikka, hamjihatlikka da’vat etdi. Mardlik jasorat, matonatni targ’ib qildi. Berdag ijodini o’rganish, qo’lyozmalarini izlab topish ishlari o’tgan asrning 30-yillaridan keyin boshlangan. Shundan so’ng uning she’r va dostonlari avval ona tilida keyin boshqa bir qator tilarda bosilib chiqdi. Uning hayoti va ijodini chuqur o’rganishga kirishildi. Mamlakatimiz istiqloлга erishga, Berdag hayoti va ijodiga munosabat tubdan o’zgardi. 1998- yilda Yurtboshimiz farmoniga binoan Berdimurot Qarg’abay o’g’li Berdag tavalludining 180 yilligi keng nishonlandi. Berdag nomidagi Qoraqolpoq Davlat universiteti qoshida Berdag Milliy muzeyi tashkil etildi. Ushbu muzey bugungi kunda Qoraqalpog’istondagi ziyo maskanlaridan biri sanaladi. Ayni paytda bu erda bu erda Orolbo’yi xalqlari tarixi va adabiyotiga oid 3000 dan ortiq eksponat saqlanadi. Ular orasida Berdaqning nigohi tushgan bir qator nodir kitoblar, qimmatli qo’lyozmalar, tarixiy liboslar, cholg’u asboblari alohida o’rin tutadi. 2014-yilda muzey xazinasini yana bir nodir eksponat bilan boyidi. Berdaqning bugungi avlodlaridan bo’lgan Amangul Allanova buyuk shoir tegishli bo’lgan choponni muzeyga keltirib berdi. Ma’lumotlarga qaraganda Berdag 57 yoshdalgida tug’ilgan nabirasi Qorajonning beshigi ustga egnidagi choponni yopib ketgan ekan.

Berdag o’z xalqining ziyolisi, bilimdon insoni bo’lishiga qaramasdan, o’sha davrda hech kim uni taqdirlamadi, ulug’lamadi, hattoki hurmatga ham ega bo’lmadi. Bu haqida u

o’zining “Bo’lgan emas” asarida yozgan. Xullas buyuk shoirning taqdiri boylar, oxunlar, mullalar bilan qaramaqarshilikda o’tgan.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, qalbida Vataniga bo’lgan muhabbat cheksiz bo’lgan, insonning farovon hayotini har narsadan ustun ko’radigan, shuningdek muhabbat borasida dengizday qaysar, ummondek cheksiz, tog’lardek ulug’vor bo’lgan insonni o’z umrining qahramoni deyish mumkin. Berdaq ham shunday insonlardan edi desak yanglishmagan bo’lamiz. Mustaqillikga erishib o’zligini, yaratayotgan xalqimiz esa bunday insonlarni ulug’lashi tabiiy va mantiqiy holdir. Berdaq hayot yo’li, yaratgan asarlari va ulardagi yetakchi g’oyalar har bir inson qalbida ezgu fikrlarga yondosh tarzda yashashga ishonamiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Tanglauli shig’armalar No’kis 1956-yil.
2. Tanlanganlar she’rlar 1958-yil T.1976
3. O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild Toshkent-2000 yil.
4. Qurboboyev B, Berdaq va o’zbek adabiyoti T; 1986-y
5. Ma’naviyat yulduzlari-Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. Toshkent 1999-yil